

VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA UNING ASORATLARI

Madaminjonova Ruhshona Dilmurodjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
aniq fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda hayotimizga kirib kelgan va jamiyatimizning barcha qatlamlari orasida keng tarqalayotgan virtual o‘yinlar va shuning bizning yashash tarzimizga ta’siri va uning salbiy jihatlari haqida so‘z yu rutiladi. Shu bilan birqa torda quyidagi maqola virtual olam o‘zi nima? U bizning hayotimizga qanday kirib keladi? Yoshlar rivojlanishiga ta’siri qanday?- kabi savollarning javobini topishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: internet, ijtimoiy tarmoqlar, kasallik, tobelik, borliq, electron o‘yinlar, ommaviy madaniyat, strategiya, auksion.

Internet - bu hozirgi kunda davr talabidir. Uning hayotimizning bir bo‘lagiga aylangani bizga sir emas. Bizga internetning qulaylik taraflari ko‘p bo‘lishiga qaramay salbiy jihatlari ham mavjud. Uzog‘imizni bizga yaqin qilish bilan birga o‘zimiz uchun kerakli barcha ma’lumotlarni osongina topa olish imkonitini beradi. Internetdan qanday foydalanish esa o‘zimizning qo‘limizda. Hozirgi kunda internetdan turli maqsadlarda foydalanishmoqda. Internetdagi virtual video o‘yinlar yoshlarga o‘z ta’sirini o‘tkazish bilan birqa, ularning ma’naviy ongiga va ruhiyatiga putur yetkazyapdi. Bu virtual o‘yinlarni Amerika tibbiyot uyushmasi video o‘yinlarga berilib ketishni rasman aqliy zaiflik kasalliklariqa olib kelishi va tez gakeritishi mumkunligini tasdiklagan. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki-uch soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko‘ngil xushlik izlaydiganlarga ham tegishli.

Kompyuter avval maxsus zallarda paydo bo‘ldi, ularda yuqori malakali mutaxassislar ishlay boshladilar. Asosan mudofaa va boshqa tadqiqotchilik masalalari bilan shug‘ullandilar. Ko‘pincha hisoblash texnikasi matematika, mantiq, ratsional g‘oyalar bilan bog‘liq masalalar ustida ish yuritdilar. Insonlar undan umuman oddiy maqsadlarda (masalan, o‘yinlar uchun) foydalanishlari mumkinligi hech kimning xayoliga ham kelmagan. «Kompyuter o‘yinlari» iborasi esa bema’ni xayoldek tuyulishi mumkin edi. Shunday bo‘lsa ham monitor oldidagi jiddiy, zavqsiz, sovuqqon olimlarning o‘rinlarini zavqli, qiziquvchan o‘yinchi bolalar egalladi.

Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Bir taqqoslab ko‘raylik, internet mavjud bo‘lmagan davrda axborotlarni dunyo bo‘ylab uzatishning eng tez usuli bu televidenye bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda axborotlar telekompaniyalar tomonidan uzatilgunga qadar ijtimoiy tarmoqlar orqali bir necha soniyalar mobaynida butun dunyoga tarqatilmoqda. Jamiyatimiz ham allaqachon o‘zlarini qiziqtirgan yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlardan izlashga o‘rganib ham qoldi. Televidenye esa jamiyatimiz tomonidan asosan siyosiy habarlarni ishonchli manbasi sifatida kuzatib boriladi. Internetning, ijtimoiy tarmoqlarning kashf etilishi ana shunday imkoniyatlar yaratdi. Ammo, bu kashfiyot boshqa kashfiyotlar singari ozining salbiy va hatto ayrim havfli jihatlarni ham namoyon etdi. Ma’lumotlar, yangiliklar, e’lonlarning bunchalik katta tezlikda tarqalishi dunyo hamjamiyatida katta o‘zgarishlar va ayrim havflarni yuzaga keltirgani rost. Ayniqsa, gap yosh avlod haqida ketganida bu havfni yaqqol sezish mushkul emas. So‘nggi yillarda diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosi bilan shug‘illanuvchi o‘ta havfli jamoalarning jabr diydalarining ko‘pchiligi ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning changaliga tushib qolmoqda. Ammo, bu yagona havf emas!

Ayni davrda yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g’oyalarning kirib kelishi ayniqsa, internet tarmog’i orqali ko’proq ko’zga tashlanyapti. Bu jarayon farzandlarimizning kompyuter texnologiyalari, turli kompyuter o’yinlariga qiziqishining ortishi bilan ham bog’liq. Ularning bu qiziqishlaridan buzg’unchi g’oya targ’ibotchilari o’z maqsadlari yo’lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Ko’rinib turibdiki, o’smirlik davrida tarbiyaga jiddiy yondashmaslik, farzandlarning xatti-harakatlariga nisbatan befarqlik natijasida ko’p hollarda farzandni qo’ldan chiqarish mumkin. Zero uning oqibati yoki information o’yinlarga mukkasidan ketish natijasida nafaqat mutaassiblik, balki turli xil kasalliklarning kelib chiqishi ham kuzatilyapti. Ya’ni internet o’yinlariga ishqibozlik oqibatida miya faoliyati bilan bog’liq insult, ruhiy kasalliklar, aksariyat hollarda yuragi yorilib o’lishi kabi salbiy oqibatlar ko’zga tashlanyapti. Bu esa rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi. Kompyuter o’yinlari yoshlarning vaqtini o’g’irlamoqda. Internet – klublarda yoshlar ayni o’qib, ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o’yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani tashvishli holat. Chunki internet va kompyuter o’yinlari asriga aylangan o’smirlar hayotdan, ilm olish, kasb o’rganishdan va ma’naviy qadriyatlardan tamoman uzilib, butunlay manqurtlashib boradi. Hozir kompyuter o’yinlari orqali o’smir yoshlarga salbiy ta’sir qilib, ular ongiga o’z buzg’unchi g’oyalarni singdirish yoki ularni to’g’ri yo’ldan ozdirishga urinadigan yashirin kuchlar juda ko’p. Kompyuter o’yinlariga mukkasidan ketgan o’smirlar o’zlari bilmagan holda yashirin kuchlarning qo’g’irchog’iga aylanadi. Kompyuterga mute bo’lgan yoshlarning fikri-xayoli, butun vaqti, hatto uyqusi ham bemani o’yinlar bilan band bo’ladi. Oxir-oqibat bunday manqurt yoshlar tengdoshlari, yaqinlari va hatto ota-onasiga ham qo’l ko’tarishgacha agar mubolag’a bo’lmasa qurol o’qalishgacha borib yetadi. Bu esa jamiyatda ilimsizlik, johillikning tomir yoyishiga oqibatda yurt parokanda bo’lishiga olib keladi. O’yinlarning bolalarga qanday ta’sir qilishi darsliklarda, maqolalarda, gazeta va jurnallarda muhokama qilinadi, televidenie, radio va bolalar poliklinikalarida muhokama qilinadi. Axir bu muammo tobora dolzarb bo’lib qolmoqda. Bolalar kattalarga qaraganda yomonroq kompyuter o’yinlariga jalb qilinadi. Darhaqiqat, odamning, ayniqsa kichik odamning ruhiyatiga, tashqaridan osongina ta’sir qilish mumkin. Internetda ko’plab onlayn o’yinlar mavjud.

Yevropa mamlakatlarida internetga asirlik xastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar bor. Bunga misol qilib Koreyada va Yevropa davlatlarida bo’lib o’tgan voqealarni aytib o’tish joiz, - deb topdik. Bu o’yinga berilib ketish; u inson (bola) hayotni emas faqat virtual hayotni o’rgana boshlaydi bu esa hammaga ma’lumki inson hech qanday zarbaga tayyor bo’lolmaydi.

Bunga misol qilib; O’zbekistonda o’tkazilgan ijtimoiy so’rovda ishtirok etgan 12-16 yoshli o’smir bolalarning yarmi ko’pincha tengdoshlari bilan suhbat qurishdan, kompyuter o’ynashni afzal biladi. O’smirlarning 43,7 foizi o’quv adabiyotini o’qish bilan cheklanar ekan. Bundan ma’lumki 10 boladan 1-tasi o’quv adabiyotlardan boshqa kitob o’qimaydi. Axborotlardan ma’lum qilishicha Rossiyada 15 yoshli bola onasini pichoqlab o’ldirgan aniqlashicha ona bolasiga ko’p kompyuter o’ynamasdan dars qilishini aytgan ko’ryapmizki virtuell oyinlarqan kanchalik xavfli ekanligini ongimizni qachon zaharlab qo’rganini bilmay qolar ekanmiz. Tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qilishimiz, farzand tarbiyasini doimiy nazorat qilib turishimiz juda ham muhim. Farzandga internetni butunlay cheklash mumkinmi? Afsuski bunaqa ish qilishimiz xato chunki ta’qiqlangan narsaga nisbatan bolada qiziqishning kuchayishi tabiiy.

Internet global tarmog’i insoniyat hayotiga qandaydir o’yinlarni o’ynab huzurlanish uchun emas, balki ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilmiy ma’lumot va axborotlarni olish imkonini yaratish maqsadida kirib kelgan. Farzand tarbiyasida muhim o’rin egallaydi,

uning dunyo qarashi shakllanishiga xizmat qiladigan, faoliyat mezonini ezgulikka yo’naltiradigan milliy o’yinchoqlar o’rnini qandaydir odam o’ldirib huzurlanishga yo’naltirilgan internet o’yinlari egallab olishiga yo’l qo’ymaslik kerak. Ma’lumki, o’sib kelayotgan bola beg’ubor bo’lgani bois ro’parasidagi odamdan yomonlik kutmaydi. Xuddi shu tariqa bola uchun qiziqarli bo’lgan o’yinlarning salbiy oqibatlariga olib kelishi uning xayoliga ham kelmaydi. Ularni hushyorlikka o’rgatish, tushuntirish, eng asosiysi, ko’ziga chiroyli ko’ringan narsalarga mahliyo bo’lib ketadigan darajadan nodonlik botqog’iga botmasligining oldini olish ota-ona va pedagoglarning jamiyat oldidagi ajralmas burchidir. Barkamol avlod tarbiyasida oila ilk maktab vazifasini o’taydi. Bolani yoshligidan yolg’on gapirmaslikka, to’g’ri fikrlashga, har birnarsadan to’g’ri foydalanishga o’rgatish, Vatanga muhabbat tuyg’ularini shakllantirish dastlab oilada amalga oshiriladi. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, farzandlarimizni internet boshqarishiga yo’l qo’ymaslik lozim. Shunday ekan, farzandlarimizni ko’zlariga chiroyli ko’ringan narsaning tashqi tomoniga emas, balki mohiyatiga e’tibor berishga o’rgatish, “o’yinbozlik” kasaliga duchor bo’lishdan asrash uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internetning ta’limga ta’siri [Elektron resurs]. – Kirish rejimi:
http://www.vfmgui.ru/sovremennie_tendencii_v_visshem_obrazovanii_506/say
2. S.N. Makeev // Tarix, falsafiy, siyosiy va yuridik fanlar, madaniyatshunoslik va san’at tarixi. Nazariya va amaliyotga oid savollar. – Sertifikat, 2015. – No 7 (57). – I qism. – B. 96.
3. www.ziyouz.com.kutubxonasi.
4. www.arxiv.uz